



NH₃

H₂O



e Conferences
Scientific conferences platform



**МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
АКАДЕМИЧЕСКИХ НАУК**

OpenAIRE

OJS
OPEN JOURNAL SYSTEMS

doi

zenodo

OPEN ACCESS

02 МАИ
2021

Международная конференция академических наук

МАЙ 2021

Конференция была включена в разные
индексации:



zenodo



1.	Xandamv Yigitali Xolmirza o'g'li, Shodmonqulov Mirjalol Turon o'g'li LAGRANJ INTERPOLYATSION FORMULASI UCHUN OPTIMAL ALGORITM VA DASTURIY TA'MINOT YARATISH	1
2.	Yuldasheva Dilfuza Alisher qizi IMPROVING THE CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	4
3.	Umirov Nurulla Usanovich, Usanov Ulug'bek Nurulla o'g'li, O'rolboev Navruzbek Mirtoza o'g'li, Ismatov To'lqin Olimjon o'g'li QOVOQDOSHLAR OILASIGA MANSUB TARVUZNING MORFOLOGIYASI VA XUSUSIYATLARI	6
4.	Setmamatov Maqsud Bekturdievich, Shavkat Normatovich Navruzov ABOUT ARCHITECTURE ESTABLISHED IN KHOREZM OASIS ON THE BASIS OF MUD ARCHITECTURE TECHNOLOGY.	9
5.	Farxodova Maftuna Qudrat qizi FRANSUZ TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI	13
6.	Диёр Бобоев, Исоров Акрам TEMIR YO'L TRANSPORTIDA TASHISH JARAYONLARINI MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI.	15
7.	Наргиза Алимджановна Ахмедова МИЛЛИЙ МУСТАҚИЛЛИККА САДОҚАТ РУҲИ	18
8.	Shahobiddin Daripov Isroiljonovich MAMLAKATIMIZNING JAHON HAMJAMIYATI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI JARAYONIDA TEMIRYO'LLARNING AHAMIYATI	22
9.	Саидмуратов Жасур Мансаб ўғли АХЛОҚ ТУЗАТИШ ИШЛАРИ ЖАЗОСИНИ ИЖРО ЭТИШ	24
10.	Садуллоева Мохинур Нуриллаевна ИЗУЧЕНИЕ ПРОЦЕССА ЭКСТРАКЦИИ РАСТЕНИЯ RUBUS IDAEUS L. С ЦЕЛЬЮ ПОЛУЧЕНИЯ СУММА ФЛАВОНОИДОВ	27
11.	Мансурова Гулчехра Алиджановна ВЛИЯНИЕ МАГНИТНОГО ПОЛЯ НА ЧЕЛОВЕКА	30
12.	Erkayev Dilmurod Saydaliyevich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLIS SENATI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBA	34

**QOVOQDOSHLAR OILASIGA MANSUB TARVUZNING MORFOLOGIYASI VA
XUSUSIYATLARI**

Umirov Nurulla Usanovich

**Jizzax Davlat pedagogika instituti “Biologiya va uni o'qitish metodikasi” kafedrası katta
o'qituvchisi (+99893)300-02-65
Email: uusanov_5596@mail.ru**

Usanov Ulug'bek Nurulla o'g'li

**Jizzax Davlat pedagogika instituti “Biologiya va uni o'qitish metodikasi” kafedrası
o'qituvchisi**

O'rolboev Navruzbek Mirtoza o'g'li

**Jizzax davlat pedagogika instituti
“Biologiya va uni o'qitish metodikasi” o'qituvchisi tel (+99893)30075 42
Email: orolboyevnavroz841@gmail.com**

Ismatov To'lqin Olimjon o'g'li

**Jizzax Davlat pedagogika instituti “Biologiya va uni o'qitish metodikasi” kafedrası 2-kurs
talabasi**

Annatatsiya: Ushbu maqolada respublikamizning hududida tabiiy o'sadigan va ekiladigan qovoqdoshlar vakillari haqida malumot berilgan. Dorivor o'simliklar haqida malumot jumladan achchiq tarvuz (Abu jahl)ning shifobaxshligi keltirilgan.

Аннотация: В статье представлена информация о представителях естественно выращиваемых и возделываемых на территории республики кабачков, информация о лекарственных растениях, в том числе о лечебных свойствах арбуза горького (Абу Джахл).

Annotation: This article provides information about the representatives of naturally grown and cultivated pumpkins in the territory of the Republic. Information about medicinal plants, including the healing properties of bitter watermelon (Abu Jahl).

Kalit so'z: essensiya, abujahl, folovoy kislota, fruktoza, artrit, ateroskleroz

Ключевые слова: эссенция, абуджаль, фолиевая кислота, фруктоза, артрит, атеросклероз.

Keywords: essence, abujahl, folic acid, fructose, arthritis, atherosclerosis

Tarvuz (Citrullus) - qovoqdoshlar oilasiga mansub bir va ko'p yillik o't o'simliklar turkumi bo'lib, poliz ekini hisoblanadi. Vatani - Afrika (Misr). Hindistonda 3 ming yildan buyon ekiladi. Hindiston, Amerika, Janubiy Yevropa, Xitoy, Turkiya, Eron, Yaponiya va Avstraliyada keng tarqalgan. Markaziy Osiyoda tarvuz ekiladigan maydoni jihatidan poliz ekinlari orasida qovundan keyin 2-o'rinda turadi. Madaniy tarvuzning xo'raki (C. aedulis Pand.), xashaki (C. colocynthoides Pand.) turlari, yovvoyi tarvuzning mevasi achchiq 4 turi ma'lum. Xo'raki tarvuzning dunyo bo'yicha ma'lum bo'lgan barcha navlari 10 ta ekologikgeografik guruhga bo'linadi. O'rta Osiyo tarvuzi alohida ekologikgeografik guruhni tashkil etadi. Palagi 4-5 m gacha boradi. Ildizi chuqur joylashgan o'q ildiz, barg qo'ltiqlaridan o'sib chiqqan jingalaklari yordamida ilashib, chirmashib o'sadi. Barg bandi uzun, barglari bir necha bo'laklardan iborat, rangi och yashil, oq va uzun tuklar bilan qoplangan. Changchili va urug'chili gullari alohida alohida joylashgan. Asosan chetdan changlanadi. Tarvuz mevasining shakli yumaloq, ovalsimon, silindrsimon. Po'sti qalin (1,5 sm), o'rtacha (1-1,5 sm), yupqa (1 sm dan kam), qattiq, eti yumshoq, sersuv, sershira, qumoq, ba'zan tolali. Etining rangi qizil, ayrim navlari malinasimon. Urug'i oq, sariq, qora, qizil, kulrang.

Abujahl tarvuzi - qovoqdoshlar oilasiga mansub yo'g'on, tugunaksimon ildizli ko'p yillik o't.

Poyasi chirmashuvchi yoki yer bag'irlab yotuvchi, uzunligi 2-4 m. Barglari asosan tuxumsimon.

chetlari o'yilgan gullari sarg'ish - oq , changchili gullari (7-15 tadan) poyaning yuqori qismida - shingilda , urug'chili gullari (5-12 tadan) o'simlikning pastki qismida o'mashgan . Mevasi qora yoki qo'ng'ir, dumaloq, diametri 78 mm.Urug'i yassi tuxumsimon, mayda. May- iyulda gullaydi. O'rta Osiyoda, Yevropada, Kavkaz va Eronda uchraydi.Abujahl tarvuzi dorivor o'simlik , ildizida glikozidlar, kraxmal, oshlovchi modda, smola, mochevina, olma kislotaning tuzlari borligi aniqlangan.Uning yangi ildizidan tayyorlangan essensiya gomeopatiyatsiyada qo'llaniladi.Ildizining spirtdagi eritmasi xalq tabobatida og'riq qoldirish, jarohat, yaralarni davolash, yo'talni qoldirish hamda bod og'rig'ini yo'qotish uchun ishlatiladi.Abujahl tarvuzi suvi gijjani davolashda ham ishlatiladi. Tarvuzning suvi artrit, ichak kasalliklari, ateroskleroz kabi kasalliklarni davolashga yordam beradi. Uning peshob haydovchi xususiyati yurak va buyrak kasalliklari bilan bog'liq, a'zolaridagi shishlarni yo'q qiladi. Jigar xastaliklarida tarvuz suvi organizmdan ortiqcha suyuqlik va shlaklarni chiqaribgina qolmasdan , jigar to'qimalarini yengil o'zlashtiriladigan qandlar bilan ham ta'minlaydi. Poliz ekinlarini yetishtirishda unga beriladigan ortiqcha azotli o'g'itlar tarvuzlarning ozuqaviylik va shifobaxsh xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rshatishi mumkin. Tarvuzning etida glyukoza, fruktoza va saxaroza ko'rinishida to'planadigan 12 foizgacha yengil o'zlashtiriladigan qandlar mavjud.Shuningdek, unda C, B1, B2, A, foliy kislotasi pektin moddalari karotinoidlar, kaliy tuzlari, temir,magniy va kalsiy moddalari, aminokislotalar ham bor.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Yaxontov.V.V "O'rta Osiyo qishloq xo'jaligi o'simliklari hamda mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurash "
- 2.O'.Pratov "Botanika"
- 3.Kursanov.L.I, V.F.Uranov "Botanika"
- 4.Burginov.V.A, Jongurazov.F.X. "Botanika"
- 5.G.S.Tursunbayeva , G.M.Duschanova, A.T.Abdullayeva "Botanika o'simliklar morfologiyasi va anatomiyasi.